

YANGI KONSTITUTSIYA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI.

Alijonova Durdona Dilmurodjon qizi

AndQXAI, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

durдонаalijonova28@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Konstitutsiyamizdagi tub o'zgarishlar, mamlakatimizda davlatni jamiyatga, xalqqa xizmat qiluvchi institutga aylantirish, uning faoliyatini qonunlarga tayanib qurishga qattiq kirishilgani, fuqarolarga berilgan keng qamrovli huquqlar, oliy majlis bobiga kiritilgan o'zgarishlar shuningdek, Yangi Konstitutsiya uchunchi renessansning poydevori ekanligi orqali yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, fuqaro, jamiyat, qonun, renessans, manfaat, ziddiyat, demokratiya, oliy majlis.*

Аннотация: *В статье описаны принципиальные изменения в нашей Конституции, превращение государства в институт, обслуживающий общество, его функционирование на основе законов, широкие права, предоставленные гражданам, изменения, внесенные в Олий Мажлис, а также то, что Новая Конституция начало третьего возрождения.*

Ключевые слова: *Конституция, гражданин, общество, право, возрождение, интерес, конфликт, демократия, верховное собрание.*

Abstract: *The article highlights fundamental changes in our Constitution, the transformation of the state into an institution serving society, its activities based on laws, all-round rights granted to citizens and changes made to the Legislative Chamber of the Oliy Majlis.*

Key words: *Constitution, citizen, society, law, revival, interest, conflict, democracy, supreme assembly.*

Konstitutsiya jamiyatimizning poydevori, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, birdamlik zanjiri, tenglik mezonidir. Davlatimizning demokratik, huquqiy davlatga aylanishida Konstitutsiyaning ahamiyati kattadir. Yangi Konstitutsiyada ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson va davlatning huquqiy holatini belgilashda inson huquqlari ustuvorligi, davlat bilan fuqaroning o'zaro siyosiy-huquqiy mas'ulligi prinsiplariga asoslanuvchi tamomila yangi konsepsiyaga tayangan bo'lib, unda ilk bor inson huquqlari kategoriyasi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, yurtimiz mustaqil taraqqiyot yo'lida dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralarni zabt etdi. Milliy iqtisodiyotimiz izchil rivojlanmoqda, uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligi yil sayin yuksalib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotgani zamirida, eng avvalo Yangi Konstitutsiya va uning insonparvarlik g'oyalarini o'zida

to'la mujassam etgan me'yorlari yotibdi. O'zbekiston Konstitutsiyasining g'oya va normalarida xalqimizning ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir. Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko'plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg'or tajribaning eng yaxshi jihatlarini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume'tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta'minlash va himoya qilish mexanizmini o'zida mujassam etgan. Xususan, Yangi Konstitutsiyamizda jahon tajribasidan kelib chiqqan holda meranda qonuni ham keltirilgan. Ya'ni, shaxs istalgan paytda sukut saqalashi mumkin. Shu bilan birga shaxs o'z aybini tan olganligi yagona dalil bo'lsa bu shaxsni jazoga tortishga asos bo'lmasligini, shaxsning o'ziga qarshi ko'rsatmalari dalil sifati e'tirof etilmasligi keltirilgan. Yana, jahon tajribasida kelib chiqib Konstitutsiyamizga Advokatura bobining qo'shilganligini, advokatlar o'z kasbiy vazifasini amalga oshirayotganda ularning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasigi keltirilgan.

Yangi Konstitutsiyaga insonlarning manfaatini ko'zlovchi bir qator yangi moddalar qo'shildi. Xususan, Konstitutsiyaning 20-moddasi insonlarning haqiqiy manfaatini ko'zlaydi deya olishimiz mumkin. Unda shunday deyilgan, inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi³⁷. Bu degani insonlarning manfaati hamma narsadan ustundir. Yangi Konstitutsiyaning yana bir afzalligi uni sud sohasida to'g'ridan to'g'ri qo'llay olamiz. Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan, sudga murojaat qilishga imkon beradi. Konstitutsiyamizda bayon qilingan so'zlar shu darajada katta ahamiyatga egaki, bularsiz insonlar yashay olmaydi, ularning huquqlari poymol bo'ladi. Unda bayon qilingan har bir masalaga fuqarolar kunda duch keladi, hayotda har qadamda bir muammoni uchratadi. Shuningdek Konstitutsiyamizning Oliy Majlis bobiga ham qator o'zgartirishlar kiritildi. Misol uchun, Oliy Majlis deputatlari hududiy kengashlarda deputat bo'lishini cheklovchi band qo'shildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati ayni bir vaqtning o'zida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, mahalliy hokimiyat vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emasligi, yana Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlariga quyidagilar qo'shildi: Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'ruzasini ko'rib chiqish; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakilini saylash; O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi Milliy ma'ruzani ko'rib chiqish³⁸ shu kabilarni aytishim mumkin. Shu bilan bir

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Toshkent-2023 12-13-betlar

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Toshkent-2023 51-54-betlar

qatorda, Senatning vakolatlari uchtaga ko'paydi. Prezident taqdimiga binoan Hisob palatasi va Sudyalari oliy kengashi raislarini tayinlash va lavozimidan ozod etish; Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorini tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to'g'risidagi prezident farmonlarini tasdiqlash; O'zbekistonning chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik vakillari faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan hisobotlarni eshitish³⁹. Bu ham xalqqa qaratilgan e'tiborning bir namunasi deyishimiz mumkin. Xususan, biz ayollarga ham keng imkoniyatlar beildi. Misol tariqasida shuni aytishim mumkinki, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda shuningdek, boshqa faoliyatlarda xotin-qizlar va erkaklarga davlat teng imkoniyat yaratib berishi aytilgan. Bu esa, kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan ko'p nizolarni hal etadi. Yana, homilador yoki farzandi bor ayolni ishqa qabul qilishni rad etish, ish haqqini kamaytirish shuningdek ishdan bo'shatish qonun bilan taqiqlandi. Shuni alohida takidlab o'tish lozimki, Konstitutsiyamizda tashqi aloqalarga ham keng o'rinlar berilgan. Har qanday davlat rivojlanmoqchi bo'lsa u albatta, qo'shnilari bilan tinch-totuv yashamog'i kerak. Shu sababli ham kelajagimiz, istiqbolimizni, taraqqiyot yo'limizni o'ylagan holda Konstitutsiyamizning qator moddalarida tashqi aloqalar keltirib o'tilgan. Xususan, tashqi aloqalarda to'la huquqli subyektligimiz, boshqa davlatlar bilan suveren tengligimiz, o'z nizolarimizni o'zimiz hal etimishimiz, boshqa davlatlarga kuch ishlatmasligimiz kabi prinsiplar keltirilgan. Joyiz bo'lsa shuni aytib o'tish kerakki, Yangi Konstitutsiya eski tahrirdagi Konstitutsiyadan afzalligi shundagi, Yangi Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri xalqqa xizmat qiladi. Eski tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy maqsadi davlat, jamiyat, fuqaro bo'lgan bo'lsa, Yangi Konstitutsiyaning asosiy maqsadi fuqaro, jamiyat, davlatdir. Bu bilan shuni aytish mumkinki, inson qadri jamiyat, davlatdan yuqorida turadi. Yangi Konstitutsiya tufayli hamma qonunchilik hujjatlarimizga o'zgartirish kiritildi ulardagi davlat, jamiyat, fuqaro prinsiplarining o'rniga, fuqaro, jamiyat, davlat prinsipi ustovor bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Yangi Konstitutsiya yangi jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligini, siyosiy maydonda o'ziga yarasha obro'ga egaligini, fuqarolarning haqiqiy himoyachisiligini, fuqarolik institutining asosiligini, eng muhimi insonlarning huquqi va manfaati hamma narsadan ustunligini ta'kidlashimiz joyiz. Yangi Konstitutsiya bizga ko'plab imtiyozlar berdi deya olishimiz mumkin. Biz yoshlarning haqiqiy ma'noda qalqonimizdir. Har qanday davlat taraqqiyotini yoshlar bilan birga quradi shunday ekan har bir davlat yoshlarning huquqini ta'minlab beradi. Biz ham uchinchi renessansni Yangi Konstitutsiya bilan birga quramiz. Chunki, Yangi Konstitutsiyada to'la ma'noda bizning huquqlarimizni ta'minlangan. Bir so'z bilan aytganda Yangi Konstitutsiya bizning taraqqiyot kafolatimizdir.

³⁹ Konstitutsiyaviy o'zgarishlar. Komron Chegaboyev nuqidan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-Toshkent-2023-yil.
2. LEX.UZ